

## MAMLAKATIMIZDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL OMILLARI

Dovudova Munibaxon Saidolimxon Qizi

Farg'ona viloyati Qo'qon shahri Qo'qon universiteti

3-bosqich talabasi +998977038585

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish jarayonida turizmnning rivojlanishining konseptual omillarini o'rganish, uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib, turizm rivojlanishining kelgusidagi istiqbollarini belgilash haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy turizm, milliy turizm, turizm infratuzilmasi, aholi turmushini yaxshilash, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, madaniy-ma'rifiy turizm, turizm va xborotlashuv, turizm rivojlanishining iqtisodiyotga ta'siri.

### KIRISH

Bugungi kunda globallashuv va axborotlashuv jarayonlarining shiddat bilan kuchayib borishi milliy turizmning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shuning uchun hozirgi davrda milliy turizm rivojlanishining konseptual omillarini izlash, uning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, turizm rivojlanishining kelgusidagi istiqbollarini belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda O'zbekistonda zamonaviy turizm infrastrukturasini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi". Shunday ekan O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish ham iqtisodiy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi.[1] Bu borada O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish maqsadida 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 9 fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari qabul qilingan. Avvalambor turizm sohasini rivojlantirishning muhim omili – bu ushbu sohaga investitsiyalarni keng jalb qilishdir.[2]

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Bugungi kunda O'zbekistonda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun zarur infrastrukturani shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratilib, Respublikamizda 20 dan ziyod turistik yo'nalishlar chet ellik turistlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. O'zbekistonga 2016-yilda 1 million 300 ming, 2017-yilda qariyb 2 million 700 ming,

2018-yilda 5 million 346 ming 200 kishi, 2019 yilda 6 million 748 ming 500 kishidan iborat turistlar kelib, 2020-yilda ularning sonini 7,5 millionga, 2023-yilda 10 million kishiga etkazish mo‘ljallandi. Bu borada, O‘zbekistonda milliy turizm infratuzilmasini rivojlantirishda barcha infratuzilma ob’ektlarini jahon andozalari darajasiga etkazib, turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari, mehmonxona, transport, oziq-ovqat, dam olish, davolash va boshqa ko‘ngilochar xizmatlarni yuqori darajada tashkil etish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Hozirda mamlakatimizda turizm resurslaridan samarali foydalanishda transport infratuzilmasining roli va hissasi yuqori bo‘lib, “O‘zbekistonda milliy turizmning rivojlanishiga O‘zbekiston avtomobil yo‘llari, “O‘zbekiston Havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik temiryo‘l kompaniyasi kabilar katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirishda mehmonxona xizmatlarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.[3]

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma’lumki, mehmonxonachilik ishini tashkil qilishda bir qancha talablar, ya’ni xodimlarning tayyorgarligi, ma’lumoti, malakasi, yoshi, sog‘ligi, chet tillarni bilishi va tashqi ko‘rinishiga ham ahamiyat beriladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda ayrim ovqatlantirish muassasalari yuqori darajada xizmat ko‘rsatish usullaridan foydalangan holda faoliyat olib borsada, ayrimlarining xizmat ko‘rsatish darajasi talabga javob bermaydi. Ularga xizmat ko‘rsatish madaniyatini yanada yuksaltirish talab etiladi. O‘zbekistonda milliy turizmning rivojlanishida bank va boshqa moliyaviy tashkilotlar ham muhim o‘rin tutadi. Turistlar sayohatda va dam olishda xilma-xil moliyaviy xizmat turlaridan foydalananadilar. Turistlarga xizmat ko‘rsatish tizimi qanchalik takomillashtirilsa, kelgusida turizmning yanada taraqqiy etishiga bevosita o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda milliy turizmning rivojlanishida axborot xizmati ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, O‘zbekistonga sayohat maqsadida kelayotgan turistlar o‘zi boradigan joy haqida, o‘zi boradigan hududning qonun-qoidalari, urf-odat va marosimlari, bayramlari, mehmono‘stligi haqidagi ma’lumotlarga, o‘sha joyning xaritasi, transport magistrallari sxemasiga extiyoj sezadi. Shuning uchun hozirgi davrda turizm infratuzilmasi zamonaviy kompyuter xizmatiga ham bevosita bog‘liq bo‘lib, tezkor axborot va so‘zlashuv, yangiliklardan xabardorlik xozirgi davr turizmining muhim talabidir.[4] Zamonaviy elektron vositalar, internet tarmoqlarida turli turistik xizmatlar, turistik markazlar haqidagi ma’lumotlar joylashgan millionlab saytlar mavjud bo‘lib, turistlar internet orqali sayohat va turistik agentliklarni tanlash, tur sayohatning chiptalari, xizmatlar uchun to‘lovlarni oldindan to‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘zbekiston o‘zining boy tarixi va madaniyati bilan turizmning rivojlanishi uchun yuqori imkoniyatlarga ega bo‘lib, O‘zbekiston hududida joylashgan 4000 ga yaqin moddiy-ma’naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKOning ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekistondagi me’moriy

yodgorliklarning ko‘pchiligi mustaqillik tufayli qayta ta’mirlanib, ushu yodgorliklarning ko‘pchiligi XII-XX asrlarga taalluqlidir. SHu bilan birgalikda O‘zbekistonning me’moriy yodgorlik orasida IV-IX asrlarga tegishli bo‘lganlari ham uchraydi. O‘zbekiston hududida undan ham qadimiyroq madaniy yodgorliklar saqlanib qolganki, bu dunyo sayyoohlarning O‘zbekistonga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi. O‘zbekistonda ibridoiy va antik davrga tegishli bo‘lgan ko‘plab tarixiy yodgorliklar mavjud bo‘lib, bugungi kunda bu tarixiy yodgorliklardan turistik ob’ekt sifatida foydalanishga qaratilgan ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.[5]

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda milliy to’rismni rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatayotgan mamlakatimiz hududidagi tarixiy-me’moriy obidalar nafaqat moddiy madaniyat yodgorligi sifatida, balki shu bilan birgalikda ilm-fan, madaniyat, taraqqiy etgan, buyuk mutafakkirlar etishib chiqqan ilmu-ma’rifat beshiklari sifatida ham xorijiy sayyoohlarni o‘ziga jalgan etib kelmoqda. Bu esa O‘zbekistonda bugungi kunda ziyyorat turizmining faol rivojlanib borishi uchun ham ulkan imkoniyatlarni yaratmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2021 yil, 173-174 betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Turizm to‘g‘risida. (Yangi tahriri). 2019 yil 18 iyul, O‘RQ-549-son. Lex. Uz / docs / 4428097
3. Muxammedov M.M., Raxmatov F. Turizm sohasida bozor munosabatlarining shakllanishi va uning tarmoq samaradorligi ko‘rsatkichlariga ta’siri. // Servis va turizm: Boshqarish va rivojlantirish muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Samarqand, 2007, 4-7 sentyabr.
4. Ostonov O’.YA. O‘zbekiston hududida turizm infrastrukturasi salohiyati. // O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda tabiiy va etnografik resurslardan samarali foydalanish muammolari, mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2019 yil, 96 bet.
5. Xashimov SH.J. Buyuk Ipak yo‘li milliy turizm rivojlanishining muhim asosi. Buyuk Ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta’lim va madaniyat. Xalqaro ilmiyamaliy konferensiya materiallari. Samarqand-SHanxay. 2019 yil, 191 bet.